

Mirzayev Toxirjon Turg’unovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: tohirzonmirzaev69@gmail.com
tel: +998339090022

Pedagogika fanlari doktori (Dsc) Professor D.M.Isroilova taqrizi asosida

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF LEGAL EDUCATION IN THE FORMATION OF LEGAL AWARENESS OF STUDENT YOUTH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19409898>

Abstract

This article reveals the role of legal education in the formation of legal awareness and legal culture in the minds of the younger generation. It analyzes effective methods and tools for the formation of students' respect for laws, legal responsibility, civic activity. In addition, the importance of educating a strong legal consciousness and cultured generation serving to build a legal state and civil society through the proper organization of legal education in the educational process is substantiated.

Kalit so'zlar: legal awareness, legal culture, legal education, civic activism, reader, pedagogical process, legal education, formation of legal awareness.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОСОЗНАНИЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье подробно раскрывается роль правового воспитания в формировании правового сознания и правовой культуры у молодого поколения. Анализируются эффективные методы и средства формирования у учащихся уважения к законам, правовой ответственности и гражданской активности. Также обоснована важность правильной организации правового воспитания в образовательном процессе для воспитания сильного правового сознания и культуры, способствующих созданию правового государства и гражданского общества.

Ключевые слова: правовое сознание, правовая культура, правовое воспитание, гражданская активность, учащийся, педагогический процесс, правовое образование, формирование правового сознания.

TALABA YOSHLARDA HUQUQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda, ayniqsa yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining demokratik huquqiy davlat sifatida rivojlanib borayotgan bir paytda, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, ularning qonunlarga hurmat bilan qarashi, fuqarolik faolligi va ma'suliyatini shakllantirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarga to'g'ri dunyoqarashni singdirish, ularning qalbida Vatanga

muhabbat, qonunga sadoqat, adolat va halollik g‘oyalarini shakllantirish — bizning ustuvor vazifamizdir”. Demak, maktabda huquqiy tarbiyani samarali tashkil etish — bu nafaqat bilim berish, balki kelajakda jamiyat manfaatlarini himoya qiladigan, yuksak huquqiy madaniyatga ega shaxsni shakllantirishdir.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, fuqarolik faoliyati, talaba, pedagogik jarayon, huquqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, huquqiy ongni shakllantirish.

Kirish

Huquqiy tarbiya — bu o‘quvchilarga huquqiy bilim berish, ularni qonunlarga bo‘lgan hurmat ruhida tarbiyalash, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish, shuningdek, o‘z huquq va majburiyatlarini anglab yashashga o‘rgatish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi — huquqiy ong va huquqiy madaniyatga ega, ijtimoiy mas’uliyatli fuqaroni tayyorlashdir.

Huquqiy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarga konstitutsiyaviy, fuqaro, jinoyat, mehnat kabi asosiy huquq sohalariga oid boshlang‘ich bilimlarni berish;
2. O‘z huquq va majburiyatlarini anglash, huquqiy ongni rivojlantirish;
3. Qonunga itoatkorlik, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
4. Fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlash.

Huquqiy tarbiya o‘quvchilarga faqat huquqiy fanlar orqali emas, balki barcha fanlar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, tarbiyaviy tadbirlar va real hayotiy holatlar orqali ham singdiriladi. Quyidagi shakl va metodlar samarali hisoblanadi:

1. Dars mashg‘ulotlarida interfaol usullardan (bahs-munozara, keys-stadi, rolda o‘ynash) foydalanish;
2. Huquqiy viktorinalar, debatlar, “sud jarayoni” kabi rolli o‘yinlar tashkil etish;
3. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari bilan uchrashuvlar;
4. Tashviqot-targ‘ibot ishlari, devoriy gazetalar, stendlar orqali huquqiy axborot berish;
5. Real hayotdagi huquqbuzarlik misollarini tahlil qilish va ularning oqibatlarini ko‘rsatish.
6. Talabalarda huquqiy ongni shakllantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

Shuningdek, huquqiy tarbiya samaradorligi uchun o‘quv rejaları va dasturlariga huquqiy ta’limni tizimli va bosqichma-bosqich amalga jshirish, metodik qo‘llanmalarning boyligi, pedagoglarning doimiy malaka oshirib borilishi zarur. Pedagogik faoliyatda huquqiy tarbiya tizimli yondashuvni, bosqichma-bosqich rivojlanishni va shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu jarayonda quyidagi metodlar samaradorlik ko‘rsatmoqda:

• **Integratsiyalashgan yondashuv** — huquqiy bilimlarning boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda berilishi (masalan, tarix, adabiyot, falsafa bilan bog‘lash);

• **Ssenariyli metodlar** — real huquqiy holatlarni tahlil qilish (cases), munozara, "sud jarayoni" o‘yinlari;


• **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar** — huquqiy videolar, onlayn testlar, kazuclar, kess stadiylar, interaktiv platformalar orqali ta’lim;

• **Samarali ijtimoiy sheriklik** — OAV, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda tadbirlar o‘tkazish.

Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan, ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida har bir Talabalarning huquqiy ong darajasini baholash va unga mos tarbiyaviy yo‘nalish belgilanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi

Pedagogik mexanizm – bu ta’lim jarayonining maqsadli va izchil tashkil etilishini ta’minlovchi, pedagogik ta’sir vositalari, metodlari, tamoyillari, shuningdek mazmun va boshqaruv elementlarining o‘zaro uzviy bog‘langan tizimidir. Ushbu mexanizm shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda kompetensiyalarning shakllanishi, bilimlarning o‘zlashtirilishi, axloqiy-ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanish jarayonlarini tartibga soluvchi uslubiy va amaliy asoslarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik mexanizm yordamida huquqiy tarbiya jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki o‘quvchilarning huquqiy ongini shakllantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va fuqarolik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha samarali faoliyatni tashkil qilish imkonini beradi.



3. Axloqiy-reflektiv bosqich

- Huquqiy bilimlarni amaliyotga yo‘naltirish
- Interaktiv uslublarni qo‘llash

- Huquqiy ong va mas’uliyatni shakllantirish |
- Refleksiya va baholash usullaridan foydalanish |

4. Monitoring-baholash bosqichi

- Kompetensiyalarni baholash va takomillashtirish
- Portfolio va loyihalar asosida kuzatuv foydalanish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 176 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
3. Бўронов Ҳ.Х. Ҳуқуқий тарбия асослари. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2021. – 112 б.
4. Педагогика: дарслик / Таҳрир ҳайъати: Тўрабоев Ш., Ходиев Б. ва бошқ. – Т.: “Иқтисод-молия”, 2022. – 384 б.
5. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: Адлия вазирлиги нашри, 2020.
6. Жўраев А. Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий маданият. // “Давлат ва жамият” журнали, 2023, №1. – Б. 45–49.
7. Назарова Г.Т. Ҳуқуқий маданиятни шакллантиришда мактабнинг роли.
8. “Тарбия ва ҳуқуқ”, 2022, №4. – Б. 28–32.